

“QISASI RABG’UZIY”DA DINIY LEKSIKANING IFODALANISHIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Choriyeva Charos Salomovna

Termiz davlat universiteti

Termiz, O‘zbekiston

E-mail: choriyevacharos94@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tili diniy leksikasining taraqqiy topishida muhim yodgorliklardan hisoblanuvchi “Qisasi Rabg’uziy” da berilgan diniy leksikaga oid ayrim leksemalar tahlilga tortildi. Teonimlarning, jumladan, farishta nomlarining asardagi izohiga va boshqa adabiyotlardagi diniy-mifologik qarashlar asosidagi etimologik jihatlariga doir ma’lumotlar keltirildi.

Kalit so‘zlar: antroponim, teonim, yazuq, malak, azozil, “Lavh ul-mahfuz”, Munkar va Nakir.

Jahon tilshunosligida, shu jumladan, turkologiyada diniy leksikaning o‘rganilishiga oid tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir davrning til xususiyatlarini, leksik qatlamini boshqa hech bir manba o‘sha davrda yaratilgan asarlarchalik batafsil yoritib bera olmaydi. Turkiy xalqlar lingvomadaniyatida Nosiruddin Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy” asari XIII-XIV asrlardagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va diniy sohalarga oid leksik birliklar qo‘llangani bilan ahamiyatlidir. Ushbu asar yaratilganiga yeti asrdan ziyod vaqt o‘tganiga qaramasdan, u tilshunoslikning til tarixi, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, teolingvistika kabi bir qator sohalari rivoji uchun xizmat qilib kelmoqda.

“Qisasi Rabg’uziy” diniy mavzudagi asar bo‘lishiga qaramay, unda nafaqat diniy, balki, boshqa leksik qatlamga mansub so‘zlar ham talaygina. Jumladan, Abdushukurov B. aynan mazkur asar tadqiqiga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida asardagi leksemalarni jami 35 ta mavzuiy guruhlariga bo‘lish mumkinligini qayd etadi. Ulardan diniy mavzuga tegishlilari sifatida quyidagi mavzuiy guruhlarni keltirib o‘tadi:

- 1) Antroponimlar: Täñri, Qur’ān, Isā;
- 2) Mavhum tushunchalar: yazuq (gunoh ma’nosida);
- 3) Teonimlar: malak – farishta, yalavač – payg’ambar, banda – qul. [3,17]

Mavhum tushunchani bildiruvchi “yazuq” so‘zi bilan birgalikda “ma’siyat” so‘zi ham asarda gunoh ma’nosida qo‘llangan: “*Farmon bo‘ldi: Dunyoga boring, menga toat qiling, ma’siyatdin yig‘iling, xalq orasinda ko‘ni hukm qiling. Kuch qilmang, zino qilmang, qon to‘kmang, xamr ichmang, xiyonat qilmang*”. [4, 37]

Asar yaratilgan davridan boshlab to bugungi kunga qadar islom dinini to‘g‘ri talqin qilish, payg’ambarlar va payg’ambar darajasiga tenglashtirilgan ba’zi shaxslar hayotiga doir qimmatli ma’lumotlarga boyligi sababli hozirgacha qiymatini yo‘qotmasdan kelmoqda. “Qisasi Rabg’uziy”da farishtalar nomlari juda ko‘p o‘rinlarda uchraydi. Jumladan, asarning “Sifati as-somavati” qismida muallif yetti

qavat osmon va undagi farishtalarning nomlari va xususiyatlarini sanab o'tadi. Asarda farishtalar ikki guruhga bo'lib ta'riflanadi: rahmat va azob farishtalari.

Tilshunos N.Husanov XV asrga tegishli yodgorliklarda qo'llangan antroponimlar haqida to'xtalarkan, u ham farishta nomlarini shartli ravishda ikki guruhga ajratadi. Birinchi guruhga nomlari yodgorliklarda uchrovchi asosiy farishtalar bo'lib, ular Ollohning sevimli va unga yaqinlashganlari hisoblanadi. Ularga Azroil, Jabroil, Isrofil, Mekoil, Munkar, Nakir kiradi; Ikkinchi guruhga esa nomlari ko'pchilik uchun ma'lum bo'lmagan farishtalar Azozil, Molik, Uzzo, Uzoyo, Horut, Morut kiradi. [2,51]

Islom ta'limotiga ko'ra, inson tug'ilganida unga ikkita farishta biriktiriladi va ular insonning umri davomida qilgan yaxshiligu yomonliklarini yozib borishadi. Farishta so'zi aslida forscha bo'lib, u arab tilida va Qur'onda maloika shaklida berilgan. "Maloika" aslida "malak"ning ko'pligi bo'lib, "xabarchi" degan ma'noni bildiradi. Farishta so'zining malak, hur, g'ilmon kabi sinonimlari ham mavjud bo'lib, ular, asosan, mumtoz adabiyotda yorning go'zalligini ta'riflash uchun ishlatiladi. O'TILda farishta va malak so'zlari aynan bir xil ma'noni bildiruvchi, xudoning amrini bajaruvchi g'ayritabiiy mavjudotlar deya ta'riflanadi: *Ba'zi rivoyatlarga qaraganda, farishtalar jannatdagi kavsar suvidan... qumg'onlarimizga quyib ketar emish. M.Mamajonov, Turmush urinishlari. Nechuk bezovtasan, barvaqt turibsan? Malak yanglig' o'zing tanho yuribsan? Uyg'un va I.Sulton, Alisher Navoiy. [6,107]*

O'zbek xalqi lingvomadaniyatida "shaytonga dars beradi" degan ibora mavjud. Odatda o'taketgan darajada ayyor, ustomon kishilarga nisbatan ishlatiladigan iboraning etimologiyasiga oid rivoyat ham asarda keltiriladi: *"Ul holda Azozil ujmohda erklik erdi. Qamug' farishtalarga ilm o'rgatur erdi. Bir kun "Lavxul-mahruz" da ko'rdi farishtalar birisi mal'un bo'lg'ay teb. Farishtalar ani bilib qamug' qo'rqdilar. Azozilg'a kelib aydilar sen ustodimizsen, biz g'oyat qo'rqarbiz, duo qilg'il, azza va jalla bizni la'natdin kuzarsin". Azozil duo qildi, farishtalar "omin" tedilar. Izi azza va jalla aning duosi birla qamug' farishtalarni la'natdin kuzardi, o'zi la'natga kirdi..." [4,20]*

Yuqoridagi parchada qo'llangan "Lavxul-mahruz" birikmasi adabiyotlarda "Lavh ul-mahfuz" shaklida uchraydi. "Ma'rifiy-irfoniylar istilohlar izohli lug'ati"da ushbu birikma so'zma-so'z tarjima qilinganda "lavh" –yozuv taxtachasi, mahfuz – muhofaza qilingan, saqlangan, berkitilgan kabi ma'nolarni anglatadi, diniy istiloh sifatida "taqdirnoma", "azalnoma" (azaliy bitik), ya'ni inson ruhi yaratilgan kun (almisoq)danoq uning taqdiri, nomai a'moli qudrat qalami-la yozib qo'yilgan umumkitob (kitoblarning onasi) deya ta'riflanadi. Asarning o'zidagi lug'atda esa peshonada yozilgan narsa, lavh deya izoh keltirilgan. Tilshunos olim A.Omonturdiyev "Diniy-mifologik ta'limotga ko'ra, so'zlar, ismlar azaldan "Lavh ul-mahfuz"da qudrat qalami-la raqam qilingan va so'ngra osmondan tushirilgan, – deya so'zning ilohiyligiga ishora qiladi.

Islom dini ta'limotiga ko'ra Munkar va Nakir inson vafot etib qabrga qo'yilganidan so'ng dastlab uni savol-javob qiluvchi farishtalardir: *Qachon Shayx Shibliy dunyodin bordi ersa tush ko'rub savol qildilar "xoling netak" teb. Javob*

aydi “qachon meni dafn qildilar ersa Munkar-Nakir alayhimas-salom keldilar, “tengring kim” teb soʻrdilar.[4,23] Bu farishtalar nomlari faqatgina hadislarda keltirilgan, Qurʼonda ularning nomi tilga olinmagan. Rasululloh (s.a.v) ular haqida shunday deganlar: Koʻzlari qamashtiruvchi chaqmoq, tovushlari esa quloqni junbushga keltiruvchi momaqaldir oq singaridir. Sochlari oyoqlari ostida boʻladi, tishlari bilan yer kovlaydilar. Ularning Munkar va Nakir deb nomlanishining sababi koʻrinishining oʻziyoq qoʻrquvga sabab boʻladi.

Xulosa qilib aytganda, “Qisasi Rabgʻuziy” bugungi davr teolingvistikasi uchun nihoyatli qimmatli manba boʻlib xizmat qiladi. Asardagi qissalar, rivoyatlarning barchasi Rabgʻuziyning oʻz davrining yetuk islomshunos olimi boʻlganidan darak berib turadi. Ushbu asar yuzasidan bugungi kunga qadar oʻzbek tilshunosligi va adabiyotshunoslik sohasida koʻplab tadqiqotlar olib borilgan, biroq asarning boy leksik koʻlami hali koʻplab tadqiqotlar uchun manba vazifasini oʻtashiga hech qanday shak-shubha yoʻq.

Adabiyotlar roʻyxati

1. Останакулов И. Қисас ар-Раѓузий – адабий асар. Филол. фан. ном. диссер. автореферати. – Тошкент, 1993.
2. Хусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари. –Т.: Ёзувчи, 1996. –Б.247.
3. Абдушуров Б. “Қисаси Раѓузий” лексикаси. Филол.фан.доктори (DSc) дисс.автореф. – Тошкент, 2017. – 91б.;
4. Носируддин Раѓузий . “Қисаси Раѓузий”.1-китоб. Тошкент.: Ёзувчи, 1990, 240-бет.
5. Носируддин Раѓузий . “Қисаси Раѓузий”.2-китоб. Тошкент.: Ёзувчи, 1991, 278-бет.
6. Oʻzbek tilining izohli lugʻati/ A.Madvaliev, D.Xudoyberganova tahriri ostida. 6 jildlik, ikkinchi jild -T.: Gʻafur Gʻulom, 2022. 1035 b.
7. Oʻzbek tilining izohli lugʻati/ A.Madvaliev, D.Xudoyberganova tahriri ostida. 6 jildlik, uchinchi jild -T.: Gʻafur Gʻulom, 2022. 843 b.